

"ZARBULMASAL" ASARINING G‘OYAVIY VA BADIY AHAMIYATI"**Ergasheva Nigina Elmurod qizi***Shahrisabz davlat pedagogika instituti 1-kurs talabasi***To'rayeva Hulkar Husan qizi***Shahrisabz davlat pedagogika instituti 1-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Gulxaniy qalamiga mansub "Zarbulmasal" asarining g‘oyaviy va badiiy ahamiyati keng yoritiladi. Asarda o‘z davrining muammolari masallar orqali tasvirlanib, insonlarning xulqi hayvonlar obrazida majoziy tarzda ifodalanadi. Ushbu asar orqali davr muhiti, ijtimoiy hayot va odamlarga xos fazilatlar aks ettirilgan bo‘lib, o‘quvchiga aniq tasavvur hosil qilishga yordam beradi.*

Kalit so‘zlar: *masallar, maqollar, hikmatli so‘zlar, g‘oyaviy-badiiy ahamiyat, tarbiyaviy o‘rinlar, jamiyatdagi ijobiy va salbiy illatlar, hayvonlar obrazi, insonlar xarakteri.*

"Zarbulmasal" asari boshqa adabiy asarlardan turli xil masallar bilan boyitilganligi bilan ajralib turadi. Uning mazmuni masal, hikoya, qissa va hajviya janrlariga asoslangan bo‘lib, o‘quvchiga tushunarli hamda qiziqarli tarzda yetkaziladi. Ushbu asar bir marta o‘qishdayoq mutolaa qiluvchining e’tiborini tortadi va uning g‘oyaviy hamda badiiy ahamiyati nihoyatda ulkan hisoblanadi.

"Zarbulmasal" asarida axloqiy va tarbiyaviy o‘rinlar yetarlicha bo‘lib, undagi hikmatli so‘zlar murakkab majozlar orqali bayon etilgan. Inson fe‘l-atvori hayvonlar xarakteri orqali tasvirlanib, har bir masalda ma’lum ibratli xulosa chiqariladi. Asar hajman kichik bo‘lsa-da, unda ko‘tarilgan mavzular doirasi keng va mazmunan chuqurdir. Gulxaniy ushbu asarni yozgan davrda "O‘ratepa masalasi" o‘z yechimini topgan edi. "Zarbulmasal" nafaqat badiiy, balki adbiy va tarbiyaviy jihatdan ham katta ahamiyatga ega bo‘lgan asardir. U xalq og‘zaki ijodi namunalari asosida yaratilgan bo‘lib, undagi masallar Sharq adabiyotining XVI-XVII asrlardagi masalchilik an‘analariga tayanadi. "Zarbulmasal" asari haqida xalq orasida turli rivoyatlar mavjud. Eng mashhurlaridan biri "Gulxaniy va hukumdor" nomi bilan tanilgan bo‘lib, unda aytilishicha, Gulxaniy asarni xalq og‘zaki ijodidan ilhomlanib,

hukmdor buyrug‘isiz yozgan. Biroq, undagi ba’zi masallar amaldorlarning hiylalarini fosh qilgani uchun hukmdor uning tarqalishiga to‘sqinlik qilgan. Shu sababli, muallif asarni yashirincham ommaga yoyishga majbur bo‘lgan. Boshqa bir rivoyatda esa Gulxaniy bu asarni podshohning o‘g‘liga tarbiya berish maqsadida yozgani aytiladi. U bola tarbiyasiga e’tibor qaratib, axloqiy saboqlarni masallar orqali yetkazishga harakat qilgan. Turli hayvonlar tilidan hikmatli hikoyalar yaratgan. Keyinchalik bu asar xalq orasida shuhrat qozonib, yozma va og‘zaki shaklda tarqalgan.

"Zarbulmasal" asarida ezgulik va yovuzlik, adolat va adolatsizlik, donolik va nodonlik, halol va harom tushunchalari o‘zaro solishtiriladi. Asarning asosiy maqsadi mutolaa qiluvchiga ta’lim-tarbiya, axloqiy yetuklik va dono bo‘lish kabi tushunchalarni singdirish vazifasi hisoblanadi. Asarda ilgari surilgan asosiy g‘oyalar quyidagilardan iborat:

Odillik – adolatli va xolisona qaror qabul qilish, hech kimning haq-huquqiga zid kelmaslik va har kimga munosib muomala qilish tamoyili.

Halollik – to‘g‘rilik, rostgo‘ylik va vijdonlilik tamoyiliga asoslangan axloqiy fazilat.

Aql-idrok – insonning fikrlash, tahlil qilish va to‘g‘ri xulosa chiqarish qobiliyati.

Donolik – chuqur bilim, hayotiy tajriba va to‘g‘ri fikrlash qobiliyatining uyg‘unligi.

Hamma narsa mehnat bilan topilishi – insonning maqsadlariga yetishish, bilim va tajriba orttirish hamda hayotini yaxshilash uchun qiladigan sa’y-harakatlari. Bu g‘oyalar asarda asosiy o‘rinni egallagan va tarbiyaviy ahamiyatga ega deb e’tirof etiladi.

Asarning asosiy maqsadi odamlarni tarbiyalash, ularga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish va jamiyatdagi salbiy illatlar – nodonlik, adolatsizlik, hasad, yolg‘onchilik va ochko‘zlik kabi yomon odatlardan ogohlantirishdir. Muallif hayvon obrazlari orqali insoniy fazilatlar va illatlarni yaqqol ko‘rsatadi. Masalan: tulki – hiylakorlik timsoli. Bo‘ri – yovuzlik ramzi. Eshak – johillik timsoli. Sher – adolat yoki hukmdorlik ramzi sifatida tasvirlanadi. Bu usul orqali muallif jamiyatdagi turli qatlamlarni tahlil qilib, insonlarni mulohaza qilishga undaydi.

Gulxaniyning "Zarbulmasal" asarining alohida tarbiyaviy ahamiyati ham ko‘p inobatga olingan bo‘limlardan biri hisoblanadi:

1. Axloqiy tarbiya berish-asar insonlarni rostgo‘ylik, halollik, mehnatsevarlik, adolat va odob kabi fazilatlarni qadrlashga o‘rgatadi. Yomon odatlardan (yolg‘on, hiyla, dangasalik) saqlanishni targ‘ib qiladi.

2. Haqiqatni hajviy va ibratli voqea orqali yetkazish-asarda hayvonlar obrazlari orqali jamiyatdagi muammolar hajviy va ibratli tarzda tasvirlangan. Bu usul og‘ir haqiqatlarni ochiq ayta olmagan adiblar uchun qulay bo‘lgan.

3. Xalq donoligini aks ettirish-"Zarbulmasal" xalq og‘zaki ijodiga asoslanib yozilgan, unda maqollar, hikmatli so‘zlar, pand-nasihatlar ko‘p uchraydi. Xalq orasida mashhur bo‘lib, dostonlar va ertaklar kabi o‘qib eshittirilgan.

4. Adabiy meros sifatida qadrlanishi-"Zarbulmasal" o‘zbek adabiyotidagi muhim masal janridagi asarlardan biri bo‘lib, Aesop masallari yoki "Kalila va Dimna" singari klassik asarlar bilan bir qatarga qo‘yiladi. Hozirgi adabiy va ta’limiy dasturlarda ham muhim o‘rin egallaydi. Hatto maktab darsliklari orasida ham ko‘rishimiz mumkin.

5. Jamiyatdagi muammolarni ko‘rsatish-Gulxaniy o‘z davrida jamiyatdagi adolatsizlik, mansabparastlik, hiyla va aldov muammolarini tanqid qilgan. Bu muammolar bugungi jamiyatda ham dolzarb bo‘lgani uchun asar hanuzgacha o‘z qadrini yo‘qotmagan.

6. Ta’lim va tarbiya tizimidagi roli-Maktablarda o‘qitiladi, yosh avlodga axloqiy saboq berishda qo‘llanadi. O‘qituvchilar va tarbiyachilar asardagi masallarni bolalarga tushunarli qilib yetkazishadi. Shunday qilib, "Zarbulmasal" nafaqat adabiy asar, balki hayotiy tajriba, axloqiy pand-nasihatlar va jamiyat hayotini aks ettiruvchi oynadir. Bu asardagi ko‘pgina hikmatli so‘zlar alohida tarbiyaviy o‘ringa ega.

Asarda keltirilgan har bir qahramonning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. "Zarbulmasal"da hayvonlar obrazi orqali insonlarning xarakteri murakkab va jozibali tarzda aks ettirilgan. Har bir hayvon ma’lum fazilat yoki kamchilikni ifodalaydi:

Tovus – go‘zallik va fahm-farosat ramzi.

Tulki – ayyorlik va zukkolik timsoli.

Burgut – jasorat va buyuklik belgisi.

Iloq (bo‘ri) – ozodalik va o‘z yo‘lidan qaytmaslik timsoli.

Oshiq mushuk – muhabbat va sadoqat ramzi.

Ot – insonning yaqin do‘sti, kuch va chidamlilik ramzi.

Tulki – hiyla va makr ramzi.

Maymun – ustomonlik va qiliqbozlik belgisi.

Qarg‘a – o‘g‘rilik va yo‘qotish ramzi.

Qo‘y – itoatkorlik va ojizlik ramzi.

Toshbaqa – sekinlik va jur‘atsizlik belgisi.

Kaltakesak – befarqlik va sustlik.

Arslon – mardlik, jasorat va shohlik ramzi.

Yo‘lbars – kuch va g‘urur timsoli.

Fil – qudrat va sabr belgisi.

Bu obrazlar orqali Gulxaniy jamiyatdagi turli tabaqa odamlari va ularning xatti-harakatlarini ajoyib qiyoslash orqali tasvirlab bergan.

"Zarbulmasal" asaridagi asosiy qahramon bo‘lmish Boyqush faqat vayronalarni makon tutadi. Asarda esa u boshqacha tarzda tasvirlangan uchun mutolaachining hayratiga sabab bo‘ladi. Boyqush tungi qushlar hisoblanadi. Asardagi obrazda Boyqushning qizi Gunashbonu deb atalgan. Ismning asl ma‘nosi esa Quyoshxon deb e‘tirof etiladi. Ismdan ma‘lumki, Quyoshxon juda chiroyliligi sabab quyoshga tenglashtirilgan. Quyidagi baytlarda unga berilgan ta‘riflar orqali obrazi shakllantirilgan:

Orazidin shamsu qamardir xijil,

So‘zlaridin shahdu shakar munfail.

Hosili umri edi ul boyning,

Oti Gunashbonu o‘shal oyning.

Bu baytda tasviriy ifodalar orqali chiroyli ma‘nolar berilgan. Unga ko‘ra:

"Orazidin shams-u qamardir xijil" – Uning yuzidan quyosh va oy hijolat chekadi, ya‘ni u shunchalik go‘zalki, hatto quyosh va oy ham undan kamdek tuyuladi.

"So‘zlaridin shahd-u shakar munfail" – Uning so‘zlari asal va shakar kabi shirin.

"Hosili umri edi ul boyning" – O‘sha qiz boyning hayotining eng katta boyligi, ya‘ni eng qadrli narsa edi.

"Oti Gunashbonu o‘shal oyning" – O‘sha oydek go‘zal qizning ismi Gunashbonu edi. Bu bayt mazmunan sharqona go‘zallik va muhabbatni madh etishga yo‘naltirilgan va obraz chiroyini yanada ochib bergan.

Boyqushdagi kibr va o‘zgalarining inobatga olmasligi asarda qiziqarli tarzda ochib beriladi. Qizi orqali ko‘proq qalin puli undirish uchun o‘z dilbandining baxtidan kechishga rozi bo‘lgan insonga xos xususiyatlar asarda yorqin aks ettirilgan. Shu kabi inson xususiyatlari jonivorlar orqali tasvirlanadi.

Asar o‘zining badiiy-g‘oyaviy shakli tufayli o‘quvchi ongiga tez yetib boradi va tushunishga oson bo‘ladi. Gulxaniy "Zarbulmasal"ni yozishga kirishganida jamiyatdagi turli shaxslar bilan munosabatda bo‘lgan, hikmatli so‘zlar va maqollar to‘plagan. Shu sababli asarda xalq maqollari asosiy o‘rinni egallaydi. Asosiy qaydlardan biri shuki, asarda hikoya qilingan Boyqush qizi uchun minglab buzuq devorlarni so‘rashi voqeasi Gulxaniygacha bo‘lgan davr manbalaridagi asarlarda ham uchraydi. Masalan, Rabg‘uziyning qalamiga mansub "Miftoxil-adl" asarida ham tilga olinadi. Bu esa shuni ko‘rsatadiki, Gulxaniy avvalgi manbalardan ilhomlangan holda, ularni o‘z davrining dolzarb masalalari bilan boyitib, yangi badiiy shaklda ifodalagan. Shunday qilib, "Zarbulmasal" nafaqat axloqiy-ta’limiy ahamiyatga ega asar, balki o‘zbek adabiyoti va xalq og‘zaki ijodining yorqin namunasi sifatida ham qadrlanadi. "Zarbulmasal" davrda ham hozirgi muammolar bo‘lganini aks ettiradi. Asar kompozitsiyasi juda murakkab, ammo tushinish nuqtai nazaridan sodda va maroqli deb baholanadi.

Xulosa: Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari o‘zbek adabiyotining eng muhim asarlaridan biri bo‘lib, unda axloqiy tarbiya, ijtimoiy hayot, adolat va insoniy fazilatlar haqida chuqur fikrlar bayon etilgan. Asar hayvonlar timsoli orqali insonlarning xatti-harakatlarini aks ettiruvchi masal va hikoyatlardan iborat bo‘lib, unda xalq donishmandligi, pand-nasihati va hayotiy tajribalar mujassam. Garchi "Zarbulmasal" XIX asrda yozilgan bo‘lsa-da, uning mazmuni bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Chunki asarda tilga olingan ijtimoiy muammolar, insoniy xususiyatlar har qanday jamiyatda uchraydi. Hozirgi zamonda ham yolg‘onchilik, adolatsizlik, nodonlik kabi illatlar mavjud bo‘lib, insonlar bunday muammolarga duch kelishda donishmandlik va tafakkur bilan yondashishlari kerak. Shu sababli, "Zarbulmasal" hozirgi avlod uchun ham ibrat manbai bo‘lib xizmat qiladi. Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari nafaqat adabiy, balki ma’naviy-axloqiy jihatdan ham muhim meros hisoblanadi. U xalq hayotini, ijtimoiy muammolarni va insoniy fazilatlarni yorqin aks ettirib, odamlarni yaxshilikka undaydi. Asarda bayon etilgan donishmandlik, ibratli hikoyatlar va hayotiy saboqlar har qanday davrda o‘z qadr-qimmatini saqlab qoladi. Shu sababli, "Zarbulmasal" asari nafaqat o‘zbek adabiyotining, balki butun Sharq adabiyotining bebaho durdonalaridan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. <https://zenodo.org>2. <https://nauchniyimpils.ru>3. <https://arxiv.uz>4. <https://uz.wikipedia.org>
2. <https://cyberleninka.ru>6. <https://sciencebox.uz> 7. Kodirova S. A. Genre Features of "Zarbulmasal" // Modern Science: Current Issues, Achievements, and Innovations. – 2021. – Pp. 97-99.8. Abdurakhimovna K. S. Main Subject Way of "Zarbulmasal" // European Journal of Innovation in Nonformal Education. – 2022.
3. Kodirova S. A. Idealistic Study of Proverbs in “Zarbulmasal” of Gulkhani // Scientific Reports of Bukhara State University. – 2021. – Vol. 5. – No. 1. – Pp. 170-179.
4. Gulxaniy “Zarbulmasal” (nashrga tayyorlovchi S.Dolimov).- Toshkent, “O'qituvchi” nashriyoti, 1972-yil.
5. Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari. Tanqidiy matn. – Toshkent 1976.
- Ishoqov F. Gulxaniy. O'zbek adabiyoti tarixi: 5 tomlik, IV tom. – Toshkent, 1979-yil.
6. Orzibekov R. O'zbek adabiyot tarixi (XVII-XIX(I yarmi) asrlar). O'zbekiston yozuvchilar Adabiyot jamg'armasi nashiyoti. – T.: 2006-yil, 155-bet.
7. S.Ahmedov, Sh.Rizayev, R.Qo'chqorov. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida 6-sinfi uchun darslik. II qism T.: “Ma'naviyat” 2017, 43-45-betlar.
8. Aralovna, Ochilova Guzal, et al. "Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes." Journal of Survey in Fisheries Sciences 10.1S (2023): 5000-5006.
9. Ayonovna A. S. IN THE CONTEXT OF ENVIRONMENTAL GLOBALIZATION, THE NEED FOR ENVIRONMENTAL EDUCATION BECOMES A PRIORITY //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – №. 07. – C. 30-35.
10. Omonov, Bakhodir Nurillaevich, Go‘zal Aralovna Ochilova, and Sitara Ayonovna Azamova. "SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE ECOLOGICAL ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN." World of Scientific news in Science 1.3 (2023): 15-28.

11. Ayonovna, Azamova Sitora. "The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization." Global Scientific Review 13 (2023): 7-10.

12. Ayonovna, Azamova Sitora, and Pirimov Lerik Xudoyberdi o'g'li. "EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ‘." TADQIQOTLAR. UZ 40.4 (2024): 135-139..

13. Ayonovna A. S. IN THE CONTEXT OF ENVIRONMENTAL GLOBALIZATION, THE NEED FOR ENVIRONMENTAL EDUCATION BECOMES A PRIORITY //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – №. 07. – C. 30-35..

14. Shakhrisabz A. S. A. THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ORIENTAL SCIENTISTS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE AMONG SCHOOLCHILDREN IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //International Scientific and Current Research Conferences. – 2024. – C. 94-97.

15. Azamova S. EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.